

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

1-oktyabr- O'qituvchi va
Murabbiylar kuni



№9 – SON

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621

2025-YIL, SENTYABR





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekani professor

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Elektron nashr 603 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 29-sentyabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

ЭТАПЫ РАЗРАБОТКИ МЕХАНИЗМОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	7
Кучаров Абдор Собиржонович, Бобожонов Азизжон Бабаханович, Хусейнов Рахим Али оглы	
KADRLAR TAYYORLASH MENEJMENTIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASHGA QARATILGAN TA‘LIM XIZMATLARI KO‘RSATISH TURLARI TAHLILI	16
Ergashev To‘lqin Shokirovich	
ЭВОЛЮЦИЯ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО БИЗНЕСА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	23
Мирисаев Абдурахман Абдулахатович	
E-COMMERCE DIFFERENCES BETWEEN DEVELOPING AND DEVELOPED COUNTRIES.....	33
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING MARKETING DASTURLARINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	40
Ikramova Taxmina Latifovna	
MINTAQAVIY RESURLARNI BOSHQARISHDA MENEJMENT YONDASHUVLARI: INSTITUTSIONAL NAZARIYA VA IQTISODIY XAVFSIZLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH.....	50
Ismoilov Abdulxoliq Muxiddin o‘g‘li	
TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YETAKCHILIK MODELLARIDAN FOYDALANISH	60
Kazakov Olim Sabirovich	
TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI QABUL QILUVCHI MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIGA TA‘SIRI BO‘YICHA EKONOMETRIK DALILLAR: USLUBLARGA ASOSLANGAN SHARH	67
Madumarov Xusniddin Komilovich	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA‘MINLASHDA KORPORATIV MADANIYAT VA MARKETING STRATEGIYALARI UYG‘UNLIGI	78
Matrizayeva Dilaram Yusupbayevna	
AHOLINING MODDIY FAROVONLIGI TUSHUNCHASI VA UNGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI	84
Mirzamurodov Oltinbek Sultonali o‘g‘li	
SUN‘IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN KICHIK BIZNESDA FOYDALANISHNING XORIJIY TAJRIBALARI VA O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI	90
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
CHAKANA SAVDODA ONLAYN KO‘RIB, OFLAYN XARID QIL (ROPO) MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI ANIQLASH.....	98
Rajapova Gulmira	
TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY MEXANIZMLARNING ROLI VA SAMARADORLIGI	105
Agzamova Marguba Mirabdullayevna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ISHLAB CHIQRISHNI AVTOMATLASHTIRISH, ERP VA CRM TIZIMLARINI JORIY ETISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	113
Uzakova Umida Ruziyevna	
FEATURES AND DISADVANTAGES OF IMPLEMENTING THE DIGITAL ECONOMY FOR CONSTRUCTION COMPANIES	122
Kurbanova Maftuna Lazizovna, Muhammad al-Khwarizmi	
LEVERAGING INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN RETAIL THROUGH DISTRIBUTED DATA AND KNOWLEDGE-BASED SYSTEMS	134
Karimova Nafisabonu Djamshidovna	
XALQARO RAQOBATBARDOSHLIKNI BAHOLASH BO‘YICHA USLUBIY YONDASHUVLAR....	145
Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich	

FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING REMOTE BANKING SERVICE	154
Abduvohidov Abdumalik Mahkamovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-IJTIMOYIY OQIBATLARI TAHLILI	161
Xatamov Nurbek Ochildiyeovich	
THE IMPACT OF GREEN BUSINESS EDUCATION AMONG ENTREPRENEURS ON THE ECONOMY: A LITERATURE REVIEW	172
Amonov Sardor Zamon o'g'li, Turobova Hulkar Rustamovna	
ISTE'MOLCHILARNING EKOLOGIK ONGINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETINGNING ROLI	188
Uzoqova Dilnoza Yusuf qizi	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARNI BOSHQARISHNING XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	196
Uzakova Umida Ruziyeвна	
TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH VA LOGISTIKA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	203
Qilichev Umid Ibodullayevich	
UNIVERSITETNI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA BENCHMARKING USULIDAN FOYDALANISH YO'LLARI.....	210
Maxmudov Faxriddin Umarovich	
O'ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANISHI TAHLILI	219
Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li	
KIMYO SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	228
Sabirov Oybek Shavkatbekovich	
QASHQADARYO VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK TOMONIDAN ISHLAB CHIQUILGAN MAHSULOT HAJMINING PROGNOZLASH.....	237
Xudoyorov Laziz Niyozovich	
РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЕНЕДЖМЕНТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНОЙ КОНКУРЕНЦИИ.....	246
Азизов Ильдар Рафаэльевич	
TIJORAT BANKLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI RAQAMLI XIZMAT TURLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLARI.....	254
Foziljonova Mushtariybonu Farruxbek qizi	
KORXONALAR PUL OQIMLARI BOSHQARUVIDA PROGNOZ USULLARIDAN FOYDALANISH.....	263
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li	
ELEKTRON SAVDO SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN'IY INTELEKT ASOSIDAGI INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING O'RNI VA AMALIY JIHATLARI.....	270
Abidjonov Nodirbek Odiljon o'g'li	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDAGI ILG'OR XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	277
Rajabov Alibek Xushnudbekovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA YASHIL SUG'URTA KONSEPSIYASI: ZARURAT, JORIY HOLAT VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	285
Zoyirov Laziz Subxonovich	
BREND QIYMATINI ANIQLASHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	294
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Odilov Akbarjon Nosirjon o'g'li	
XUSUSIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	304
Gulmatov Bahodir Xabibullayevich	

KORXONALAR BREND QIYMATINI ANIQLASHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI	311
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich	
MINTAQA TURIZM SALOHİYATINI VA UNGA TASIR ETUVCHI OMILLAR.....	318
Nasriddinov Husanbek Sadriddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI DON MAHSULOTLARI TARMOG'IDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUV	324
Dildora Kurbanova	
XALQARO SAVDONING SIRKULAR IQTISODIYOT TAMOYILLARIGA UYG'UNLASHUVIDA ASOSIY TENDENSIYALAR.....	333
Muratova Shohista Nimatullayevna	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	342
Yuldasheva Dildora Kamiljan qizi	
KOMPA NIYALARDA IQTISODIY KO'RSATKICHLARNI YAXSHILASHDA XODIMLAR SALOHİYATINING O'RNI.....	350
Sattarov Shuxrat Abug'affarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUUDDLARI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	355
O'rozov Azamat Otaboyevich	
KIMYO SANOATI KORXONALARIDA RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI KPI VA ROI INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH.....	363
Muminova Dildora Dilshadovna	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT THROUGH INVESTMENT: INTERNATIONAL EXPERIENCE OF DEVELOPING COUNTRIES	371
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
MILLIY IQTISODIYOTNING TASHQI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA YONDASHUVLAR.....	378
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
"DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI" TOIFASIGA YONDASHUVLARNING PAYDO BO'LISHI VA EVOLYUTSIYASI	384
Karimov Javlon Ko'ziyevich	
ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL, GOVERNANCE) TAMOYILLARINI DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA JORIY ETISH.....	395
Ismailov Allayor Rashidovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR.....	405
Achilov Ilmurad	
INVESTITSION SALOHİYATNI OSHIRISH ORQALI MINTAQALARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	415
Qobilov Anvar Eshpo'lotovich	
"YASHIL IQTISODIYOT" TAMOYILLARI ASOSIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK SOHASIDA BOSHQARUV QARORLARINI ASOSLASHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	424
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA KOMPA NIYALARINING INVESTITSION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	433
Haqberdiyev Bekzod Uktamovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISH VA ATROF MUHIT MUHOFAZASINI TA'MINLASH MAQSADIDA KICHIK BIZNES VA YASHIL LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	444
Uskenbayeva Dilnoza Bakhodir qizi	
TRANSPORT TIZIMLARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	453
Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li	

MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MASALALARI	459
Xusanova Gavhar	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGI ASOSIY KO'RSATKICHLARI VA ULAR DINAMIKASI TAHLILI.....	467
Atayev Jahongir Erkinovich	
СОВРЕМЕННАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ОЦЕНКИ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА РАЗВИТИЕ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА	476
Исраилов Рустамбек Ибрагимович	
REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH BO'YICHA XORIY TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH YO'NALISHLARI.....	487
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAHOLASH VA BOSHQA TUZILMALARNING O'ZARO HAMKORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	496
Rixsimbayev Odiljon Kabildjanovich	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH VA SANOAT KORXONALARINI JOYLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	505
Nuritdinov Botir Kodirxanovich	
INVESTITSIYALAR VA ULARDAN TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	517
Isakov Axmadali Esanbaevich	
KORXONALARNI BUDJETLASHTIRISH ASOSIDA BOSHQARISHNING XALQARO TAJRIBALARI.....	525
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO'YICHA JORIY MEXANIZMLARNING TAHLILI	537
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
TASHABBUSLI BYUDJETLASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARIGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR HAMDA ERISHILGAN NATIJALAR TAHLILI.....	545
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN DIGITAL MARKETING OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN.....	553
Sadikov Shokhrux Shukhratovich	
INVESTITSIYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	558
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA TURIZM SOHASIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH	566
Tajieva Shaxnoza Mamarejabovna	
MINTAQALAR KESIMIDA INNOVATSION SALOHİYAT NOMUTANOSIBLIKLARINING SABABLARI VA EKONOMETRIK TAHLILI.....	576
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
MINTAQAVIY SANOATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	586
Ochilov Akram Odilovich, Ro'ziqulov Jamshid Ulug'bek o'g'li	
SUG'URTA INSTITUTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA UNING IQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI.....	594
Sherov Sanjar Radjabovich	

MINTAQAVIY SANOATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI

Ochilov Akram Odilovich

Qarshi davlat universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrası mudiri,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
ORCID ID: 0009-0004-9254-188X
E-mail: akram.oo@mail.ru

Ro‘ziqulov Jamshid Ulug‘bek o‘g‘li

Qarshi davlat universiteti magistranti
E-mail: jamshidruziqulov015@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda mintaqaviy sanoat rivojining nazariy asoslari, iqtisodiy mexanizmlarning mohiyati, ularning hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’siri yoritib beriladi. Shuningdek, davlat tomonidan sanoatni hududlar kesimida qo‘llab-quvvatlash vositalari, investitsiya siyosati, moliyaviy-kredit va soliq mexanizmlarining o‘rni ochib beriladi. Maqolada mintaqaviy sanoat rivojining barqarorligini ta’minlashda innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar va xorijiy tajribaning ahamiyati ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy sanoat siyosatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: mintaqaviy sanoat, iqtisodiy mexanizmlar, hududiy rivojlanish, investitsiya siyosati, sanoat infratuzilmasi, davlat tartibga solishi, innovatsiyalar.

Аннотация

В статье представлен всесторонний анализ экономических процессов отрасли, разработанный в исследовательской работе ИУШ. Освещены теоретические основы экономического сектора отрасли, влияние экономических механизмов и стратегий на социально-экономическое развитие отрасли. Рассмотрена роль государственной поддержки отрасли, инвестиционной политики, производственных, кредитных и налоговых механизмов. Проведен анализ значимости технологий и международного опыта. Исследование служит основой для разработки научных работ и практических рекомендаций по управлению промышленными предприятиями.

Ключевые слова: региональная промышленность, экономические механизмы, региональное развитие, инвестиционная политика, промышленная инфраструктура, государственное регулирование, инновации.

Abstract

This scientific article comprehensively analyzes the economic mechanisms of regional industrial development. The study highlights the theoretical foundations of regional industrial development, the essence of economic mechanisms, and their impact on regional socio-economic development. It also reveals the role of state

support for industry in the regions, investment policy, financial and credit and tax mechanisms. The article also analyzes the importance of innovations, digital technologies, and foreign experience in ensuring the sustainability of regional industrial development. The results of the study serve to develop scientific conclusions and practical recommendations for improving regional industrial policy.

Keywords: regional industry, economic mechanisms, regional development, investment policy, industrial infrastructure, state regulation, innovation.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan mintaqalarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishga bog'liqdir. Har bir mintaqaning tabiiy resurslari, mehnat salohiyati, ishlab chiqarish infratuzilmasi va geografik joylashuvi uning sanoat rivoji uchun muhim omillar hisoblanadi. Shu sababli, sanoatni rivojlantirish masalasi nafaqat umumiy makroiqtisodiy darajada, balki mintaqalar kesimida ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Mintaqaviy sanoatni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va aholi bandligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Sanoat tarmoqlarining mintaqalarda rivojlanishi ishlab chiqarish kuchlarini hududiy jihatdan oqilona joylashtirish, mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish hamda transport-logistika xarajatlarini qisqartirish imkonini beradi. Natijada hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi oshadi va barqaror rivojlanish uchun mustahkam asos yaratiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaviy iqtisodiyot bo'yicha asosiy nazariy platforma sifatida Abdug'aniyev A. tomonidan yozilgan "Mintaqaviy iqtisodiyot va hududiy rivojlanish" asari [1] foydalanildi. Muallif hududlarning iqtisodiy salohiyati, resurslarning hududiy taqsimoti va ixtisoslashuv zarurati orqali raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlarini asoslagan. Asarda hududiy tafovutlarni kamaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan mexanizmlar maqoladagi iqtisodiy mexanizmlar tizimini shakllantirishda nazariy tayanch vazifasini bajardi.

Rasulov N.M. tomonidan tayyorlangan "Sanoat iqtisodiyoti" asari [2] sanoat tarmoqlarining o'zaro aloqadorligini, ishlab chiqarish infratuzilmasining samaradorlikka ta'sirini va sanoat siyosatini shakllantirishda foydalaniladigan moliyaviy vositalarni chuqur tahlil qiladi. Muallif tomonidan ilgari surilgan indikatorlar va tahlil uslublari maqolada sanoat rivojining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy natijalari bilan bog'lanishini asoslashda muhim bo'ldi.

Sharifxo'jayev M. tomonidan yozilgan "Innovatsion rivojlanish nazariyasi va amaliyoti" nomli monografiyada [3] innovatsiyalarni iqtisodiy tizimlarga integratsiyalash mexanizmlari batafsil ko'rsatilgan. Asar maqoladagi innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni sanoat barqarorligiga ta'siri masalasini nazariy jihatdan chuqurlashtirishda xizmat qildi. Ayniqsa, texnologik transformatsiyaning hududiy raqobatbardoshlikka ta'siri haqidagi fikrlar maqoladagi "aqli ixtisoslashuv" modelining amaliy asoslarini mustahkamladi.

Investitsiya siyosatiga doir Qodirov D.T. ning “Investitsiya faoliyatini tartibga solish mexanizmlari” [4] risolasi investitsiya muhitining institutsional mezonlari, moliyalashtirish manbalari va tartibga solish mexanizmlari tahlil qilingan. Mazkur manbada keltirilgan davlat–xususiy sektor oʻrtasidagi iqtisodiy aloqalarni tartibga soluvchi mexanizmlar maqoladagi investitsiya strategiyalarining asosiy konturlarini belgilashda bevosita manba boʻlib xizmat qildi.

Porter M. tomonidan yozilgan “The Competitive Advantage of Nations” [5] asari klaster yondashuvi doirasida mintaqaviy sanoatni rivojlantirish konsepsiyasini shakllantirishda nazariy negiz sifatida qaraldi. Klasterlar orqali mintaqalarda sanoat tarmoqlari oʻrtasida sinergiyani yuzaga keltirish, axborot oqimlarini tezlashtirish va ixtisoslashgan mehnat bozorini shakllantirish kabi jihatlar maqoladagi zamonaviy sanoat zonalariga haqidagi fikrlar bilan mushtarakdir.

Krugman P. ning “Geography and Trade” [6] asari esa hududiy iqtisodiyotga taʼsir qiluvchi tortishuv omillari, iqtisodiy markazlar va periferiyalar oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik hamda sanoat joylashuvining oqibatlarini chuqur tahlil qiladi. Aynan shu yondashuv maqolada yoritilgan “markaz-pereferiya” modeli orqali resurslarning notoʻgʻri taqsimlanishi va hududlararo nomutanosiblik xavfini asoslash imkonini berdi.

Todaro va Smith tomonidan tayyorlangan “Economic Development” [7] nomli darslik rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini oʻrganishda asosiy global metodologiyani taklif etadi. Undagi barqaror rivojlanish, institutsional islohotlar va inson kapitali haqidagi tushunchalar maqoladagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va “Triple Helix” modeli kontekstida asosiy nazariy yondashuvni taqdim etdi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda mintaqaviy sanoatni rivojlantirishga oid iqtisodiy mexanizmlarni tahlil qilishda tizimli yondashuv asos qilib olindi. Avvalo, nazariy asoslarni aniqlash maqsadida klassik va zamonaviy iqtisodiy modellar oʻrganildi. Xususan, joylashuv nazariyasi, oʻsish qutblari konsepsiyasi, klasterlashuv va aqlli ixtisoslashuv yondashuvlari solishtirildi. Metod sifatida iqtisodiy-mintaqaviy koʻrsatkichlar tahlili, kontseptual modeli yaratish va adabiyotlar sharhi orqali asosiy omillar ajratib olindi. Mahalliy va xalqaro tajribalarning taqqoslanishi orqali Oʻzbekiston sharoitiga mos tavsiyalar ishlab chiqildi. Shuningdek, sanoat infratuzilmasi, investitsiya oqimi va innovatsion salohiyatga oid mavjud holatlar baholandi. Tadqiqotda sifat jihatidan tahlil asosiy oʻrinda boʻlib, statistik modellashtirish emas, balki tushunchaviy-analitik yondashuv afzallik sifatida qoʻllanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning nazariy asoslari va konseptual yondashuvlari iqtisodiyot fanining eng dinamik va koʻp qirrali yoʻnalishlaridan biri boʻlib, u mamlakat hududlarining iqtisodiy oʻsish surʼatlarini belgilashda strategik ahamiyat kasb etadi. Mintaqaviy sanoat siyosati shunchaki korxonalarni geografik joylashtirish emas, balki hududiy resurslar, infratuzilma, inson kapitali va

innovatsiyalarning o'zaro uyg'unligini ta'minlovchi murakkab mexanizmdir. Ushbu jarayonning mazmun-mohiyatini chuqur anglash uchun uning tarixiy evolyutsiyasi, fundamental nazariyalari va zamonaviy global tendensiyalarini yaxlit holda ko'rib chiqish lozim.

Mintaqaviy iqtisodiyotning nazariy poydevori klassik joylashuv (lokatssion) nazariyalari bilan boshlanadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Alfred Veber tomonidan ilgari surilgan "Sanoat shtandorti" nazariyasi sanoatni rivojlantirishning ilk ilmiy modeli hisoblanadi. Veber korxonani joylashtirishda minimal xarajatlar tamoyiliga tayangan. Uning fikricha, sanoat ob'ekti uchta asosiy omil — transport, ishchi kuchi va agglomeratsiya samarasi kesishgan eng maqbul nuqtada bo'lishi kerak. Agar mahsulotni tashish xarajatlari yuqori bo'lsa, korxona xomashyo manbaiga yaqin joylashishi, agar ishchi kuchi arzon va malakali bo'lsa, aholi punktlariga yaqinlashishi lozim edi. Agglomeratsiya samarasi esa bir hududda bir nechta korxonalarning to'planishi natijasida umumiy infratuzilmadan foydalanish va xarajatlarni taqsimlash orqali keladigan iqtisodiy foydani tushuntirib berdi. Bu nazariya bugungi kunda ham sanoat zonalarini loyihalashtirishda o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

XX asr o'rtalariga kelib, sanoat rivojlanishiga bo'lgan qarashlar yanada kengaydi. Fransua Perru tomonidan ishlab chiqilgan "O'sish qutblari" (Growth Poles) nazariyasi mintaqaviy siyosatda inqilobiy o'zgarish yasadi. Perruning ta'kidlashicha, iqtisodiy rivojlanish hudud bo'ylab bir tekis taqsimlanmaydi; u ma'lum bir "innovatsion markazlar"da paydo bo'ladi. Bu markazlar, odatda, yuqori texnologiyali yoki tez rivojlanayotgan "lokomotiv" tarmoqlarni o'z ichiga oladi. O'sish qutbi o'zining ishlab chiqarish quvvati va innovatsion salohiyati bilan atrofidagi hududlarga "diffuziya" (tarqalish) effekti orqali ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yirik avtomobil zavodining bitta mintaqada barpo etilishi o'nlab butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar, servis markazlari va logistika kompaniyalarining shakllanishiga olib keladi. Bu esa zanjirsimon reaksiya hosil qilib, butun mintaqqa sanoatining tarkibiy tuzilishini o'zgartiradi.

Shu bilan birga, mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda "Markaz-pereferiya" modeli (Jon Fridmann) muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu modelga ko'ra, mamlakat iqtisodiyoti rivojlangan "markaz" (metropoliya) va resurs yetkazib beruvchi "pereferiya" (chetki hududlar)ga bo'linadi. Sanoat siyosatining asosiy vazifasi — markazdagi kapital, texnologiya va innovatsiyalarni chetki hududlarga yo'naltirish orqali nomutanosiblikni kamaytirishdir. Agar davlat aralashuvi va maqsadli mintaqaviy dasturlar bo'lmasa, markaz pereferiyadagi eng yaxshi resurslarni (ayniqsa, intellektual kadrlarni) o'ziga so'rib olishi va hududlararo tabaqalanishni yanada kuchaytirishi mumkin. Shu sababli, zamonaviy sanoat konsepsiyalari chekka hududlarda kichik sanoat zonalarini tashkil etishni ustuvor vazifa qilib qo'yadi.

XXI asrga kelib, jahon iqtisodiyotida "Klaster yondashuvi" (Maykl Porter) mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Porter klaster tushunchasini ma'lum bir sohada bir-biri bilan raqobatlashuvchi, lekin ayni paytda hamkorlik qiluvchi korxonalar, oliy ta'lim muassasalari va davlat tashkilotlarining geografik yaqinlikdagi birlashmasi deb ta'riflaydi. Klasterning asosiy afzalligi —

ochiq raqobat muhitida innovatsiyalarning tez almashinuvidir. Korxonalar bir-biriga yaqin joylashgani sababli, axborot oqimi tezlashadi, tranzaksion xarajatlar kamayadi va malakali kadrlar bozori shakllanadi.

Masalan, to'qimachilik klasteri tarkibiga faqat ip-kalava zavodi emas, balki paxta yetishtiruvchilar, dizayn markazlari, tikuvchilik fabrikalari, kimyoviy bo'yoq yetkazib beruvchilar va eksportyorlar kiradi. Bunday yaxlit tizim mintaqaning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Bugungi kunda "Aqlli ixtisoslashuv" (Smart Specialization) konsepsiyasi ham mintaqaviy siyosatda keng qo'llanilmoqda. Bu yondashuvning mohiyati har bir mintaqaning o'ziga xos "noyob qobiliyati"ni (unique selling point) aniqlash va barcha resurslarni aynan o'sha yo'nalishga safarbar etishdir. Masalan, bitta viloyat o'zining qulay iqlimi va qadimiy an'analari bilan "agrosanoat" yo'nalishida aqlli ixtisoslashsa, boshqa bir viloyat mineral resurslari va muhandislik salohiyati bilan "tog'-kon mashinasozligi"ga e'tibor qaratishi lozim. Bu yondashuv resurslarning tarqoqligini oldini oladi va investitsiyalarning samaradorligini oshiradi.

Mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning konseptual asoslari shuningdek, barqaror rivojlanish (Sustainable Development) va "Yashil iqtisodiyot" tamoyillari bilan ham chambarchas bog'liq. Zamonaviy sanoat nafaqat iqtisodiy foyda keltirishi, balki ekologik muvozanatni saqlashi va ijtimoiy mas'uliyatni his qilishi kerak. Shuning uchun ham sanoatni rivojlantirish konsepsiyalarida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, chiqindisiz texnologiyalar va resurs tejovchi usullarni joriy etish alohida o'rin tutadi. Bu esa mintaqaning uzoq muddatli istiqbolda yashash uchun qulay va iqtisodiy jihatdan barqaror bo'lishini kafolatlaydi.

Sanoatni hududiy tashkil etishda institutsional muhitning ahamiyati ham beqiyosdir. Institutsional yondashuvga ko'ra, mintaqaning rivojlanishi faqat resurslarga emas, balki "o'yin qoidalariga", ya'ni qonun ustuvorligi, mulk huquqining himoyalanganligi, korrupsiyaning past darajasi va biznesni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmaning mavjudligiga bog'liq. Davlat tomonidan tashkil etiladigan Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) aynan mana shunday sun'iy institutsional muhit vazifasini o'taydi. U yerda investorlar uchun alohida soliq rejimi va soddalashtirilgan ma'muriy tartib-taomillar yaratiladi, bu esa kapitalning o'sha mintaqaga oqib kelishini tezlashtiradi.

Inson kapitali (Human Capital) nazariyasi ham mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning ajralmas qismidir. Sanoatning texnologik darajasi mintaqadagi ishchi kuchining malakasiga to'g'ridan-to'g'ri proporsionaldir. Agar mintaqada oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari sanoat korxonalari bilan integratsiyalashmagan bo'lsa, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish imkonsiz bo'lib qoladi. Shu sababli, konseptual yondashuvlarda "dual ta'lim" tizimi va ilmiy-tadqiqot markazlarini sanoat parklari tarkibida tashkil etish zaruriyati ta'kidlanadi.

Mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning nazariy asoslari klassik xarajatlar tahlilidan boshlab, zamonaviy raqamli va klasterli tizimlargacha murakkab yo'lni bosib o'tdi. Muvaffaqiyatli mintaqaviy sanoat siyosati Veberning joylashuv tamoyillari, Perruning o'sish qutblari, Porterning klaster modeli va zamonaviy "aqlli ixtisoslashuv"

g'oyalarining sinteziga asoslanishi kerak. O'zbekiston kabi jadal rivojlanayotgan mamlakatlarda har bir viloyatning o'ziga xos iqtisodiy landshaftini hisobga olgan holda, sanoatni diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish hududiy farqlarni kamaytirish va milliy iqtisodiyotni global darajaga olib chiqishning yagona yo'lidir. Bu jarayonda davlat, biznes va ilm-fan o'rtasidagi "uch tomonlama spiral" (Triple Helix) modeli mintaqaviy innovatsion yuksalishning bosh harakatlantiruvchisi bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda mintaqaviy sanoatni rivojlantirish tasodifiy jarayon emas, balki aniq maqsadga yo'naltirilgan va ilmiy asoslangan iqtisodiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiy mexanizmlar deganda sanoat rivojini rag'batlantiruvchi moliyaviy, institutsional, tashkiliy va huquqiy vositalar majmui tushuniladi. Ushbu mexanizmlar davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash, investitsiyalarni jalb etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi sharoitida ham mintaqaviy sanoatni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda hududlarda sanoat zonalari, erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini tashkil etish orqali sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularni takomillashtirish zaruratini yanada oshirmoqda.

Mintaqaviy sanoatni rivojlantirish masalasi iqtisodiy nazariya va amaliyotda muhim o'rin egallaydi. Ushbu jarayonni chuqur anglash uchun avvalo mintaq, sanoat va iqtisodiy mexanizm tushunchalarining ilmiy mohiyatini aniqlab olish zarur. Mintaqa iqtisodiy tizimning tarkibiy qismi bo'lib, u o'ziga xos resurslar, ishlab chiqarish salohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar majmuasini ifodalaydi. Sanoat esa moddiy ishlab chiqarishning yetakchi tarmog'i sifatida mintaqaning iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy nazariyada mintaqaviy rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqarish kuchlarini hududiy joylashtirish, ixtisoslashuv va kooperatsiya masalalari bilan chambarchas bog'liqdir. Klassik iqtisodiy nazariyalarda mintaqalar rivojiga asosan tabiiy resurslar va geografik omillar ta'siri kuchli bo'lgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlarda innovatsiyalar, inson kapitali va institutsional muhit asosiy omillar sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy sanoatni rivojlantirish faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan cheklanmay, balki yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Mintaqaviy sanoat rivojining nazariy asoslaridan biri — hududiy ixtisoslashuv nazariyasidir. Mazkur nazariyaga ko'ra, har bir mintaq o'zining nisbiy ustunliklariga asoslangan holda ma'lum sanoat tarmoqlariga ixtisoslashishi kerak. Bu esa resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Mintaqaviy ixtisoslashuv sanoat klasterlarini shakllantirish uchun ham muhim shart hisoblanadi.

Sanoat klasterlari mintaqaviy rivojlanishning zamonaviy konseptual yondashuvlaridan biri bo'lib, ular o'zaro bog'liq sanoat korxonalari, ta'minotchilar, ilmiy-tadqiqot muassasalari va infratuzilma obyektlarining muayyan hududda jamlanishini anglatadi. Klasterlashuv ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, innovatsiyalarni tezroq joriy etish imkonini beradi va mintaqaviy sanoatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda iqtisodiy mexanizmlar tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Iqtisodiy mexanizmlar — bu sanoat rivojini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy vositalar, usullar va rag'batlantirish choralarining majmuidir. Ular orqali davlat va bozor subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tartibga solinadi. Iqtisodiy mexanizmlar samarali bo'lishi uchun ular mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi zarur.

Nazariy jihatdan mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari bir nechta asosiy guruhlariga ajratiladi. Birinchidan, institutsional mexanizmlar bo'lib, ular huquqiy baza, mulkchilik shakllari va boshqaruv tizimini o'z ichiga oladi. Ikkinchidan, moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlar bo'lib, investitsiya siyosati, soliq tizimi, kreditlash va subsidiyalarni qamrab oladi. Uchinchidan, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar bo'lib, sanoat infratuzilmasini rivojlantirish, sanoat zonalari va klasterlarni tashkil etishni o'z ichiga oladi.

Mintaqaviy sanoat rivojida davlatning tartibga soluvchi roli iqtisodiy nazariyada keng muhokama qilinadi. Keynesian yondashuvga ko'ra, davlat iqtisodiyotga faol aralashuvi orqali investitsiyalarni rag'batlantirishi va iqtisodiy o'sishni tezlashtirishi mumkin. Neoklassik yondashuv esa bozor mexanizmlarining ustuvorligini ta'kidlab, davlat aralashuvini minimal darajada cheklashni taklif etadi. Amaliyotda esa mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda ushbu yondashuvlarning muvozanatli uyg'unligi qo'llaniladi.

Shuningdek, barqaror rivojlanish konsepsiyasi mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning nazariy asoslarida muhim o'rin tutadi. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, sanoat rivoji iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ham ta'minlashi lozim. Mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va resurslarni tejash muhim vazifalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning nazariy asoslari turli iqtisodiy konsepsiyalar va yondashuvlarga tayanadi. Ushbu nazariy asoslar mintaqaviy sanoat siyosatini ishlab chiqishda va iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur ilmiy maqolada mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari nazariy va amaliy jihatdan kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida mintaqaviy sanoat rivojining iqtisodiy mohiyati, uning hududiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni va ahamiyati asoslab berildi. Mintaqalar sanoatini rivojlantirish mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlash, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va aholi bandligini oshirishda muhim omil ekanligi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy sanoatni rivojlantirish samaradorligi bevosita iqtisodiy mexanizmlarning to'g'ri shakllantirilishi va amaliyotda izchil qo'llanilishiga bog'liqdir. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan investitsiya siyosati, soliq va bojxona imtiyozlari, moliyaviy-kredit qo'llab-quvvatlash choralari sanoat korxonalarining rivojlanishini rag'batlantiruvchi asosiy vositalar hisoblanadi. Shu bilan birga, sanoat infratuzilmasini rivojlantirish, erkin iqtisodiy zonalar va sanoat klasterlarini tashkil etish mintaqaviy sanoatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mintaqaviy sanoatni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, hududiy rivojlanishni jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu yo'nalishda kompleks va tizimli yondashuvni kuchaytirish mintaqalar sanoat salohiyatidan yanada samarali foydalanish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdug'aniyev A. Mintaqaviy iqtisodiyot va hududiy rivojlanish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
2. Rasulov N.M. Sanoat iqtisodiyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Sharifxo'jayev M. Innovatsion rivojlanish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2021.
4. Qodirov D.T. Investitsiya faoliyatini tartibga solish mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
5. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
6. Krugman P. Geography and Trade. – Cambridge: MIT Press, 1991.
7. Todaro M., Smith S. Economic Development. – Pearson Education, 2020.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, sentyabr, 9-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**